To'liboyeva Shahnoza Shuhrat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti 3-bosqich talabasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti va shu bo'yicha olimlarning izlanishlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, J.Piajening klinik suhbat metodini maktabgacha yoshdagi bolalarga qay tarzda qo'llagani haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh davri, J. Piaje tadqiqotlari, Klinik suhbat metodi, Egosentrik nutq, Ijtimoiylashgan nutq, M.I.Lisina.

"Boshqa odamni bila turib o'rganayotgan individning o'zi ham shakllanadi"

L.S.Vigotskiy

Maktabgacha yosh davrida bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti uning kelajak hayoti poydevori hisoblanadi. Xususan, shu davrda bolaning kamol topishi, shakllanishi uchun asos bo'luvchi ko'nikmalar o'z aksini topadi. Ana shu ko'nikmalar, aynan muloqot, o'zaro munosabat jarayonida o'zlashtiriladi. Shunday ekan, maktabgacha yosh davrida muloqot jarayoniga oqilona yondashish lozim.

Ontogenezda maktabgacha yosh davri 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davr hisoblanadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim. Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir

bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar nutqni birmuncha to‘la o‘zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog‘chadagi o‘rtoqlari va qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo‘lib o‘ynashga harakat qiladilar. Bolalar hattoki o’z o’yinlarida ham kattalarning pred- metlarga munosabatinigina emas, balki ko‘proq ularning o‘zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga taqlid qiladilar. Eng asosiysi bu o‘yinlarda kattalarning predmetli dunyoga nisbatan xulq-atvori takrorlanmaydi, odamlar orasidagi munosabatlarga, xususan — rollariga imitatsiya (taqlid) qilinadi. Hech bir yosh davri ushbu yosh davridagidek shaxslararo hamkorlikning turli shakllarini talab qilmaydi, chunki u bola shaxsining turli jihatlarini rivojlanishi zarurati bilan bog’liq. Bu tengdoshlari, kattalar bilan hamkorlik, o‘yinlar, muloqot va birgalikdagi mehnatdir. J.Piaje bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagilar nutqiga ko‘proq ahamiyat qaratgan, uni ayniqsa test savollariga javob berishidagi takrorlanuvchi xatolar qiziqtirgan bolalar bog‘chasi sharoitida tadqiqot o‘tkazilib, unda kuzatuvchilar erkin faoliyat (rasm chizish yasash yoki o‘yin davomida bolalarning barcha aytgan fikrlari va bajaradigan harakatlarini tizimli ravishda qayd qilib borganlar). J.Piaje taxminiga ko‘ra, bolalar fikrlarini ikkita guruhga bo’lish mumkinligini ko‘rsatadi. Suhbatdoshini javob qaytarishiga manfaatdorligi xarakterlanadi, uning vazifasi suhbatdoshga ta’sir ko‘rsatish.

1. Ijtimoiylashgan nutq darajalari kategoriyalari axborot, tanqid, buyruq, iltimos, taqlid, savol, javob.

2. Egotsentrik nutq shakli bo‘yicha bu fikrlar har xil bo’lishi mumkin takrorlash (exolaliya) monolog jamoaviy biroq umumiyligi suhbatdoshining nuqtayi nazari qandayligi, uni tinglayotganligi bilan qiziqmay bola ayni damda nimani o‘ylayotgan bo’lsa shu haqida o‘z fikrini bildiradi.

Egotsentrik nutq vazifasi ta’sirliroqdir «Suhbatlashishdan qoniqish» harakatlarni kuzatilishi va ritmliligi J.Piaje bolaning erkin nutqida egotsentrik nutq hissasini o’lchab ko‘rib, ilk yoshda egotsentrik nutq koeffitsienti yuqoriligini 75%, 6—7 yoshga kelib asta-sekin pasayishini aniqlagan. J.Piaje egotsentrik nutq faktlarida bolalar fikrini sifat jihatidan o‘ziga xosligining muhim isbotini ko‘rgan. J.Piaje yangi metodni, klinik yoki suhbat metodini ishlab chiqqan. J.Piajening klinik suhbat metodini bu bola bilan qayd qilingan me’yoriy savollar bilan chegaralanib qolmay erkin suhbatlashishidir. Eksperimentator va bolaning muloqotini mazmuni tabiat hodisalari tushlar, axloqiy me’yorlarga taalluqli bo‘lgan. Kundalik hayotda bolalar o‘zlari ko‘pincha kattalarga beradigan savollardan iborat edi. «Osmonga quyosh qayerdan kelgan, nima uchun quyosh qulamaydi, u qanday turibdi, nima uchun quyosh porlaydi, nima uchun shamol esadi, shamol qanday qilib hosil bo‘ladi, odamlar qanday qilib tush ko‘radilar». Klinik metod bu puxta amalga oshiriladigan ma’lumotlarni aniqlash, nutq va aqliy rivojlanishning yoshga bog'liq kesimidir. Tadqiqotchi savollar berib, bolaning fikr-mulohazalarini tinglaydi. Bolaning har bir oldingi javobiga bog’liq bo‘lgan qo‘shimcha savollarni keyin beradi. Klinik suhbat davomida bola reaksiyasini noto‘g‘ri talqin qilish ayni damda kerakli bo’lgan savolni topa olmay gangib qolish yoki aksincha kutilayotgan javobni singdirish xavfi har doim mavjud bo‘ladi. Klinik suhbat o‘ziga xos so‘rov qilish san’atini aks ettiradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar pozitiyasi (holati) sifatida egotsentrizm ildizi nimadan iborat? J.Piaje ularni bolalar faoliyatining o‘ziga xos xarakterida (masalan, ota-onaning g‘amxo‘rligi bolaning barcha moddiy ehtiyojlarini oldindan bajarib qo‘yadi va u deyarli ziddiyatli narsalar bilan uchrashmaydi) bolani nisbatan kechroq ijtimoiylashuvida, ijtimoiy muhitga 7—8 yoshdan oldinroq moslashmasligida ko‘radi. Kattalar bilan munosabat ko‘proq majbur qilish munosabatidir u bolani o‘z subyektivligini anglashiga olib kelmaydi. O‘zi haqidagi bilimlarni rivojlantirishi ijtimoiy o‘zaro ta’sirdan sodir bo’ladi, bu munosabatda bolaning tengdoshlari bilan hamkorlik qilish juda muhimdir. Bunday tarzda asta-sekin bilish tendensiyasi markaziy ba’zi bir vazifalarni mahalliyga berilishi sodir bo‘lib ijtimoiylashgan fikr egotsentrizmni siqib chiqaradi va egotsentrik nutq yo‘qolib, yo‘q bo’lib ketadi.

M.I.Lisina va uning hamkasblari diqqat markazida bo‘lgan. Bola hayotining birinchi yetti yilligi davomida bu jarayonlardagi bir qancha bosqichlar, shuningdek, ularning shakllanganlik mezonlari hamda u yoki bu muloqot bosqichi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan intellekt va shaxs tuzilishidagi yangi tuzilmalar ajratilgan edi. Tadqiqot natijalari har bir yosh bosqichida kattalar bilan muloqot o‘zining maxsus funksiyasini bajarishi haqida dalolat bermoqda. Kattalar bilan bo‘lgan muloqotda boshqa odamlar bilan va ularga nisbatan emotsional munosabatga ehtiyoj shakllanadi, psixik jarayonlar rivojlanadi, vositali xarakterdagi predmetli harakatlarni egallash sodir boladi. Kattalar va bolalarning o‘zaro aloqa shakllari shakllanish yo‘lini bosib o‘tadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko‘ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi davr — bu 3—4 yosh oralig‘ida bo‘lib, bola emotsional jihatdan o‘z-o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqdir; ikkinchi davr — bu 4—5 yoshni tashkil qilib axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish; uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yosh davridagi bolalarning kattalar bilan mulo- qoti ularda nutqning rivojlanishi hisobiga chuqurlashadi. M.I.Lisina maktabgacha yoshdagi bolani kattalar bilan muloqotining vaziyatdan tashqari xarakterini ta’kidlab, uning 2 shaklini ko‘rsatgan. Bola 3—4 yoshga to‘lganida hamkorlik o‘rniga muloqotning bilish shakli shakllanadi. Vaziyatdan tashqari bilish muloqoti shakllanadi. Muloqotning bu shaklida yetakchi motiv — bilishdir. Bunda kattalar bilan hamkorlik qilib tevarak-atrof bilan tanishadi, kattalar bilan «nazariy hamkorlik» jarayoni amalga oshadi. Bola hayvonlar, narsalar, planetalar, nimadan yasalganligi haqida juda ko‘p «Nima uchun?» degan savollar beradi. Kattalar bola tomonidan bilim manbayi sifatida idrok qilinadi, savollariga va o‘ziga jiddiy munosabatda bo’lishni, hurmatni talab qiladi. Bu ehtiyojning muhimligi shundaki, bu yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan tez xafa bo‘luvchanlikda namoyon bo‘ladi. Bola 6—7 yoshga to‘lganda muloqotning oliy shakli — vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqotga o‘tiladi. Bunda bola kattalarga oila haqida, qayerda ishlashi, nima ish qilishi haqida savollar bera boshlaydi. Endi kattalar bola uchun ijtimoiy bilish manbayi sifatida namoyon bo‘ladi. Bolaning kattalar bilan muloqoti hamdardlik, o‘zaro bir-birini tushunish,

qarashlarning umumiyligiga intilish kabilar bilan chuqurlashadi. Uch yoshda bolada tengdoshlari bilan muloqotda emotsiyalar, ifodali qarashlardan foydalanadi. 3—4 yoshli bola uchun tengdoshi birgalikdagi amaliy faoliyatning ishtirokchisiga aylanadi, uning individual xarakterologik xislatlarini sherigi payqamaydi. 4 yoshda tengdoshi muloqot sherigiga aylanadi. 4—5 yoshda sherigini o‘zi bilan teng mavjudot sifatida ko‘rib o‘zini u bilan taqqoslaydi. 5—7 yoshga kelib tengdoshi bolaning ko‘z o‘ngida individuallikka aylanadi, u bola uchun muhim suhbatdoshga aylanadi, muloqotning ko‘pchilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha kattalardan o‘zib ketadi. Bola o‘zini va tengdoshini bir butun shaxs sifatida idrok qiladi, unga shaxsiy munosabat bildiradi. S.A.Axundjanova tomonidan «Maktabgacha yoshdagi bolaning turli muloqot vaziyatlarida nutqi funksiyalari va shakllari xususiyatlari» mavzuidagi tadqiqotida aniqlanishicha, bu yosh davrida nutq shakllarining rivojlanishida sujetli-rolli o‘yinlar jarayonida muloqot bilan birgalikda tengdoshlari bilan mahsuldor faoliyat turlari ham qulay sharoit hisoblanadi. Bunday faoliyat turlari maqsadga yo‘nalganligi, ma’lum darajada ixtiyoriylikni talab qiladi. Bajarilayotgan harakatlarning mazmunini va harakat predmeti tavsifini nutqda mos aks ettirish uni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblanadi. E.Z.Usmanova rahbarligida B.B.Nurullayeva tomonidan «Maktabgacha yoshdagi bolalarni tafakkurini modellashtirish faoliyatining tengqurlar bilan muloqotda rivojlanishi» mavzusida ilmiy tadqiqot olib borilgan. B.B.Nurullayevaning tadqiqotida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurning modellashtiruvchi faoliyati bu yosh davri uchun xos bo‘lgan faoliyat boiib, unda bolalarning intellektual imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘ladi. Bu yosh davrida tengdoshlari bilan muloqot tafakkurning modellashtiruvchi faoliyatini o‘zlashtirishning asosiy shartidir. Modellashtirish vazifalarini birgalikda hal qilish tashqi predmetli faoliyatning ichki rejaga o‘tishiga imkon tug‘diradi. Bola tengdoshini modellashtirishga o‘rgatib, ushbu faoliyatni egallashning sifat jihatidan yangi darajasiga o‘tadi, diadada o‘zaro ta’sir qilish sheriklarning o‘zaro rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Bola va kattalar orasidagi yangi munosabatlar, kattalar obrazi bolaning xatti-harakatlarini ma’lum tomonga yo‘llaydi, bu esa bola shaxsi rivojlanishida barcha yangi psixologik tuzilmalarning paydo bo‘lishida asos hisoblanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbayi sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida oladi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan harakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti hamda uning kasb tanlashida ahamiyati juda kattadir. Bog'cha yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu bolani tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bogkliq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Bu motivlarga asta-sekinlik bilan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan bog'liq bo'lgan o'qish motivlari qo'shiladi. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e'tiborli, mehribon bo'lish xususiyati ham shakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda o'z xatti-harakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar. Bu davr nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola va kattalar orasidagi yangi munosabatlar, kattalar obrazi bolaning xatti-harakatlarini ma'lum tomonga yo'llaydi, bu esa bola shaxsi rivojlanishida barcha yangi psixologik tuzilmalarning paydo bo'lishida asos hisoblanadi.

Shuni xulosa qilish kerakki, maktabgacha yosh davrida bola kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida asosan ularning xatti-harakatlari va so'zlarini o'zlashtirgan holda, ularga taqlid qiladilar. Bu davrda bola borliqni o'zlashtiradi. Nafaqat kattalarning va tengdoshlarining tashqi ko'rinishi, balki ichki olamiga ham kirib borib, ularni tahlil qila boshlaydi. Aynan shuning uchun ham bu davrda bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti, o'zaro munosabati juda muhim va dolzarb masaladir. Shu o'rinda,

L.S.Vigotskiyning “Boshqa odamni bila turib o’rganayotgan individning o’zi ham shakllanadi” fikri o’rinlidir. Darhaqiqat, bola atrofdagilar bilan muloqotga kirishar ekan, ularni o’rganadi va shu jumladan o’zi ham shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova- “Umumiy psixologiya”-T-2009;

2.M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyev-“Yosh va pedagogik psixologiya”-T-2014;

3.Z.T.Nishanova, N.G’. Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova-T-2019;